

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## **FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ**

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'lrimda tayyorlandi.

### **Tahrir hay'ati**

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

### **Tahririyat kengashi**

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAGALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFOUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,  
2022.**

**T.Egamberdiyeva**

Qiz bolalarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishning  
pedagogik xususiyatlari ..... 7

**R.Safarova, M.Abdullayev**

Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish  
usullari va metodlari ..... 11

**J.Obidov**

Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasiga oid bilimlarini takomillashtirishning pedagogik  
mazmuni va amaliyotdagi holati ..... 16

**F.Madraximova**

Ta'limni axborotlashtirish sharoitida talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish dolzarb  
pedagogik muammo sifatida ..... 21

**X.Tojiboyeva**

O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning  
pedagogik imkoniyatlari ..... 26

## IQTISODIYOT

**M.Yuldasheva, A.Kolkanatov**

Oilaviy dam olish madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy va madaniy marketing ..... 29

**S.Ismoilova**

Budjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligini ifodalaydigan  
ko'rsatkichlar tizimi ..... 34

## FALSAFA, SIYOSAT

**A.Yuldashov**

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasini ta'minlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy  
asosda boshqaruvchi tashkilotlarning tutgan o'rni ..... 39

**D.Raxmatova**

Qatag'onlik siyosatining aholi ijtimoiy-ma'naviy hayotiga salbiy ta'siri  
(xx asrning 40-50 yillar misolida) ..... 47

## TARIX

**B.Matboboyev, A.Aloxunov**

Farg'ona vodiysida ilk urbanizatsiya jarayonlari ..... 53

**S.To'raxo'jayev**

Sovet hokimiyati tomonidan Turkiston ASSR da amalga oshirilgan bolalar  
evakuatsiyasi va reevakuatsiyasi tarixidan ..... 58

**R.Ahmedov**

Turkiston ASSRda savodsizlikni tugatish bo'yicha dastlabki chora-tadbirlarning  
yo'lga qo'yilishi (1918-1922-yillar) ..... 63

**Sh.Jumayev**

Farg'ona viloyatidagi katolik jamoalarining faoliyati: tarix va bugungi kun ..... 70

**I.Xo'jaxonov**

Amir Temur davri shaharsozligida turli o'zliklarning namoyon bo'lishi ..... 74

**A.Sarsenbayev, N.Turambetov**

Yevropada islom huquqi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili (XVIII-XXI) ..... 78

**R.Akbarov**

Ikkinci jahon urushi yillarda o'zbek milliy matbuoti sahifalarida mahalliy  
resurlardan foydalanish masalasi ..... 85

**R.Murodaliyev**

So'ngak mozor-qo'rg'onining davrlashtirilishi haqida ..... 92

**N.Turambetov**

Yozef shaxt - islom huquqshunosligi bo'yicha taniqli yevropalik sharqshunos olim ..... 98

**X.Ergasheva**

1917-1924 yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati tarixi ..... 103

**Sh.Xonimov**

Yoshlar ijtimoiy faolligi va dunyoqarashi shakllanishiga  
globallashuv jarayonlarining ta'siri ..... 109

**IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEK MILLIY MATBUOTI SAHIFALARIDA  
MAHALLIY RESURSLARDAN FOYDALANISH MASALASI**

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕСТНЫХ РЕСУРСОВ В УЗБЕКСКОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ  
ПЕЧАТИ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ**

**UTILIZATION OF LOCAL RESOURCES IN UZBEK NATIONAL PRESS DURING THE  
SECOND WORLD WAR**

**Akbarov Rahmatillo Murtozali o'g'li<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Akbarov Rahmatillo Murtozali o'g'li**

– Namangan davlat universiteti stajyor-tadqiqotchisi.

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda mamlakatning mudofaa qudratini kuchaytirish hamda aholi ehtiyojlarini qondirish uchun mahalliy resurslardan, ichki imkoniyatlardan foydalanishi tarixi urush davri o'zbek milliy matbuoti ma'lumotlari asosida xronologik tartibda tahlil qilindi.*

*Tadqiqot ishi natijasida urush yillarida O'zbekistonda oziq-ovqat resurslarini ko'paytirish uchun ilgari foydalanimay kelingan yovvoyi mevalar, o'simliklar, meva danaklari, poliz ekinlarining urug'lari ham ishlatalganligi aniqlandi. Jumladan, iste'mol qilingan mevalarning po'choqlari, sanoat chiqindilari bilan urush sharoiti tufayli yetishmayotgan xomashyolarning o'mini to'ldirilgan. Birgina anor mevasining po'chog'i – ko'nchilik (teriga ishlov berish), siyoh tayyorlash va tibbiyotda muhim xomashyo sifatida ishlatalgan.*

**Аннотация**

В данной статье анализируется история использования местных и внутренних ресурсов в Узбекистане в годы Второй мировой войны для укрепления обороноспособности страны и удовлетворения потребностей населения в хронологическом порядке на основе данных узбекской национальной печати.

Исследование также показало, что дикорастущие плоды, растения, семена фруктов и семена дыни, которые ранее не использовались, использовались для увеличения продовольственных ресурсов в Узбекистане в годы войны. В частности, оболочки съеденных фруктов заменили промышленными отходами, которых из-за войны не хватало. Кожура одного граната используется в качестве важного сырья для дубления (обработки кожи), изготовления чернил и медицины.

**Abstract**

*This article analyzes the history of the use of local and domestic resources in Uzbekistan during the Second World War to strengthen the country's defense capabilities and meet the needs of the population in chronological order, based on data from the Uzbek national press.*

*The study also found that wild fruits, plants, fruit seeds and melon seeds, which had not been used before, were used to increase food resources in Uzbekistan during the war years. In particular, the shells of the consumed fruits have been replaced by industrial wastes, which have been in short supply due to the war. The skin of a single pomegranate is used as an important raw material in tanning (leather processing), ink making, and medicine.*

**Kalit so'zlar:** Ikkinci jahon urushi, o'zbek milliy matbuoti, mahalliy resurslar, oziq-ovqat muammosi, sanoat chiqindilari, yovvoyi mevalar, yovvoyi o'simliklar, g'o'zapoya kuli, tikan shakar, teri oshlash.

**Ключевые слова:** Вторая мировая война, узбекская национальная пресса, местные ресурсы, продовольственные проблемы, промышленные отходы, дикорастущие плоды, дикорастущие растения, пепел стебля хлопка, терновый сахар, кожный нарост.

**Key words:** World War II, Uzbek national press, local resources, food problems, industrial waste, wild fruits, wild plants, cotton stalk ash, blackthorn sugar, skin growth.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).**

Ikkinci jahon urushi yillarida O'zbekistonning fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasini o'rganishda respublikaning oziq-ovqat va sanoat ishlab chiqarishida mahalliy resurslardan foydalanish harakati nisbatan juda kam darajada tadqiq qilingan masaladir. Urush davrida mahalliy imkoniyatlardan foydalanish tarixi shu bilan ham ahamiyatliki, O'zbekistonda urushdan ilgari foydalanimay kelingan yovvoyi o'simlik va mevalar, sanoat ishlab chiqarishidan qolgan chiqindilardan foydalanib, o'z-o'zini hamda frontni zaruriy oziq-ovqat va sanoat mollari bilan ta'minlay oldi. Ikkinci jahon urushi yillarida mamlakatimizdagi ushbu harakatning yutuq va kamchiliklarini o'rganish bugungi kunning muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ/ MATERIALS AND METHODOLOGY)

Tadqiqot ishining asosiy manbalari O'zbekiston SSR KP(b) Markaziy Komiteti, Toshkent oblasti va shahar komitetrasi va O'zbekiston SSR Oliy Sovetining matbuot organi hisoblangan "Qizil O'zbekiston" gazetasini hamda bir qator viloyatlarning matbuot nashrlari, xususan, Namangan viloyatining – "Stalin haqiqati", Samarqand viloyatining – "Lenin yo'li", Buxoro viloyatining – "Buxoro haqiqati" singari o'zbek tilida nashr etilgan gazetalardir. Shular bilan birga, tarixchi olim R. Shamsutdinov muallifligidagi "Ikkinchi jahon urushi va front gazetalari" [1] nomli kitobi ham manbaviy adabiyot vazifasini o'taydi.

Ikkinchi jahon urushi yillarda oziq-ovqat muammosi, mamlakat ehtiyojlarini ta'minlash uchun mahalliy ichki imkoniyatlardan foydalanish masalasi haqida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, sobiq sovet tuzumi davri tadqiqotlaridan – E.Abdurahmonovning "O'rta Osiyo respublikalari olimlarining frontga qo'shgan hissasi" [2] risolasida Markaziy Osiyo respublikalarida mahalliy resurslardan foydalanishda olimlarning qo'shgan hissasi birmuncha o'rganilgan. MDH mamlakatlari miqiyosida Yu.A.Budnikov [3] – urush yillarda Ural hududlarida oziq-ovqat muammosini hal etish uchun mahalliy resurslardan foydalanish masalasida tadqiqot ishlarini olib borgan. Ushbu tadqiqot natijalari ham mavzuni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ishida Ikkinchi jahon urushi davri gazetalari sahifalaridagi ma'lumotlar umumiylidkan xususiylikka o'tish metodi orqali xronologik asosda tahlil qilingan.

### NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS)

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi bilan Sovet Ittifoqining barcha hududlari, xususan, O'zbekistonda mahalliy ichki resurslardan foydalanish masalasi dolzarb vazifaga aylandi. Bu jarayon ishlab chiqarishning barcha tarmoqlari-kolxoz, sovxozi, sanoat korxonalarida amalga oshirildi. Mahalliy resurslardan foydalanish aholi ehtiyojlarini qondirishi kerak edi. Shunday qilinganda davlat markazlashtirilgan fondlardan aholi uchun kam, front uchun esa shuncha ko'p mablag' sarflay olar va ko'plab zaxira g'amlay olish imkoniyatiga ega bo'lardi. Shuni hisobga olib hukumat mahalliy tashkilotlar oldiga har bir hududning o'ziga xos imkoniyatlaridan kelib chiqib oziq-ovqat hamda sanoat ishlab chiqarishida mahalliy resurslardan yuqori darajada foydalanish vazifasini qo'ydi. Masalan, Vologda oblastida cho'chqa ko'paytirish, qo'ziqorin va boshqa yovvoyi mevalarni yig'ish, baliq ovlash ishlari amalga oshirilgan. [4] Ural hududlarida ham qo'ziqorin, har xil mevalar, yashil o'simliklar (otquloq, qichitqi o't) va shu kabi iste'mol qilish mumkin bo'lgan narsalar to'plangan. [3:25]

O'zbekistonda ham urush yillarda mahalliy resurslardan foydalanishni rivojlantirish, yangi-yangi xomashyo manbalarini ko'paytirish jarayonlari kuchaydi. Buning natijasida yovvoyi o'simlik va mevalar, qishloq xo'jaligi va sanoatda ilgari foydalanimay kelingan har xil chiqindilardan mahsulot tayyorlash ishlari avj oldirildi. Bunda O'zbekistondagi olimlar bilan birgalikda frontbo'yi hududlardan ko'chirib keltirilgan olim va ilmiy xodimlar katta yordam berganlar.

Mahalliy resurslardan oqilona foydalanish ishlarida qishloq xo'jaligi xodimlariga ko'mak berish uchun ilmiy xodimlar tomonidan kichik shakldagi qo'llanmalar nashr etib turilgan. Masalan, "Qizil O'zbekiston" gazetasida xabar qilinishicha, 1941-yil sentyabrda O'zbekiston davlat nashriyoti Yu.A.Dobrinining "Sabzavotni qanday tuzlash kerak", I.Granitovning "Yovvoyi o'simliklardan foydalaningiz", V.V.Belolipov va Yu.A.Dobrininlarning "Sabzavot ham meva quritish va shinni qaynatish", M.V.Kozinning "Meva va sabzavot qoldiqlaridan qanday foydalanish kerak" nomli kitoblarini nashrdan chiqaradi. [5] Bundan tashqari, sohaga oid bilimlar matbuot sahifalarida orqali keng ommaga yetkazib borilgan. Front orqasini mustahkamlash uchun mahalliy resurslardan foydalanish haqidagi targ'ibot ishlari o'zbek milliy matbuoti sahifalarida Toshkent oblastidagi Yangiyo'l rayoni qishloq xo'jalik xodimlarining Respublikaning boshqa oblastlaridagi barcha qishloq xo'jaligi xodimlariga qilgan murojaatnomasidan keyin kuchaytirib borildi. "Hamma narsa front uchun, dushman ustidan g'alaba qozonish uchun!" degan shiori bilan e'lon qilingan murojaatnomada bajarilishi zarur bo'lgan vazifalar ro'yxatida "... Mahalliy oziq-ovqat resurslardan har taraflama foydalanish, jumladan, shinni, mayiz, yog' va boshqa mahsulotlar tayyorlash" [6] masalasi ham bor edi. Matbuot sahifalarida e'lon qilingan maqolalar tahlili shuni ko'rsatadiki, urushning SSSR uchun tobora qiyinlashuvi, Moskva mudofaasi, Leningrad qamali hamda Stalingrad janglari singari frontni har tomonlama qo'llab-quvvatlash zarur bo'lgan bir davrda

## TARIX

mahalliy resurslardan eng yuqori darajada foydalanish ishlarini sovet hukumati faol tarzda targ'ib qilgan. Sohaga oid bilimlar, tajribalar, yutuq va kamchiliklar matbuot orqali butun aholiga yetkazib borildi. Ixtirochilik va ratsionalizatorlik tashabbuslari rag'batlantirildi.

Matbuot sahifalarida berilgan maqolalar tahliliga ko'ra, mahalliy xomashyolardan mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarida oblastlardagi mnogopromsoyuz (hunarmandchilk uyushmalari) tashkilotlari tarkibidagi artellar katta rol o'yangan.

Xususan, Buxoro oblastining Koson rayonidagi "Kommuna" arteli, Qarshi va Chiroqchi rayonlaridagi artellar yaylovlarda ko'plab o'sadigan "tikan shakar"ni qaytadan ishlab undan hosil bo'ladijan qand-shirasidan holva, nisholda, mag'iz va boshqa mahalliy shiravorlar pishirgan.[7] Koson rayonidagi "Krasniy molot" va "Kommuna" artellarida 1941-yilgi tikandal shakar tayyorlash rejasini 15-oktyabrdayoq 100 foiz bajarib yana rejadan tashqari 5 tonna tikan shikari tayyorlab berilgan.[8] Oziq-ovqat resurslarini ko'paytirish uchun Buxorodagi "Maraniy", "Qizil partizan" va Chkalov nomli artellar 1941-yilda o'rik mevasidan yaxshi sifatli povidlo (qiymo) uzum va tarvuzdan shinni ishlab chiqarishni rivojlantirganlar. Bu mahsulotlarning urug'laridan ham unumli foydalanib, o'rik danaklaridan "sho'rak" qilish, qovun, tarvuz va qovoq urug'laridan yog' olish ishlari tashkil qilingan.[7]

O'zbekistonda ungacha bo'lgan davrda foydalanimay kelingan har xil yovvoyi mevalardan biri – bu respublikaning tog'li hududlarida juda ko'plab uchraydigan yovvoyi jiyda edi. "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1941-yil avgust oyida "Jyda behuda nobud bo'lmasin" nomli sarlavhali maqolada jydaning nechog'lik ahamiyatli ekanligiga ahamiyat berib, har yili 20 ming tonna jiyda yig'ib olish mumkinligi ta'kidlanib, "agar to'qayzorlarda o'sgan jydaning 50 foizi terib olinsa, bu – mamlakatimizga 2 ming tonna qand bergen bo'ladi" deyiladi.[9] Jydaning sentyabr-oktyabr oylarida pishib yetilishini hisobga olib, bu ishga kolxz va boshqa manfaatdor tashkilotlarni puxta tayyorgarlik ko'rishga chaqiriladi.

Jyda mevasi ustida o'tkazilgan tadqiqotlarning amaliyoti o'laroq Xorazm oblastidagi artellarda jyddan spirit tayyorlangan bo'lsa, Samarqandagi o'simliklardan dori-darmon tayyorlaydigan trest undan tanin va tanelbin ishlab chiqarishni yo'lga qo'yadi. Ximiya sanoatiga qarashli korxonalar esa, jyddan kofe ishlab chiqargan. 1943-yilda O'zbekistonning tog'li rayonlaridan jami 70 ming tonna shunday yovvoyi mevalar yig'ib olingan.[10] Bu esa mamlakatning oziq-ovqat hamda dori-darmon resurslarini ko'paytirishga sezilarli hissa qo'shgan.

Qizil Armiya va aholi ehtiyojlari uchun oziq-ovqat bazasini ko'paytirish jarayonida urush davrida yana bir muhim tadbir amalga oshirildiki, bu respublikadagi sholi ekilgan maydonlardan unumli foydalanish ishi edi. O'zbekiston SSR XKS qoshidagi Bosh baliq sanoati Toshkent pitomnigining direktori Gorotkevichning matbuotga bergan ma'lumotlariga qaraganda, O'zbekiston SSR XKS 1942-yil 15-yanvarda sholipoyalarda baliq urchitish haqida qaror chiqargan. Qarorga muvofiq Toshkent va Samarqand oblastlarida 1942-yilda jami 7 ming hektar sholipoyada baliq urchitilishi kerak bo'lgan. Bu orqali quyidagilar ko'zlangan: birinchidan, baliq o'stirilgan yerlarda sholi hosili har gektarda 3-6 sentnerdan ortadi; ikkinchidan, har gektar sholipoyadan 1– 1,5 sentner baliq olinadi; uchinchidan, sholipoyalarda baliq yetishtirish bezgak kasaliga qarshi kurashishni yengillashtiradi. Chunki, yosh baliqlar bezgak tarqatadigan chivinlarning tuxumlarini yeysi.[11]

Urush yillarda O'zbekistonda dori-darmon tayyorlash sohasida mahalliy xomashyodan foydalanish ishida ham salmoqli ishlar qilingan. Jumladan, O'zbekiston SSR Dorixonalar boshqarmasi 1941-yilda eng zarur bo'lgan dorilardan besh xilini mahalliy xomashyo hisobiga ishlab chiqarishni vazifa qilib oladi va buni ortig'i bilan uddalaydi. 1942-yil uchun boshqarma O'zbekistonda streptotsit, sulfidin, bromli kamfara, nikotin kislotosi, xloroform, narkoz efiri kabi juda muhim dorilardan 15 xilini tayyorlashni o'z oldiga qo'yan. Narkoz efirini tayyorlashda eng muhim va kamchil sernaya kislota o'rniga mahalliy balchiqning bir xilidan foydalanib ishlab chiqarishni yo'lga qo'yan.[12] "Buxoro haqiqati" gazetasining 1941-yil 13-noyabr sonida "Dori-darmon o'simliklari yig'ishga zo'r e'tibor beraylik" nomli maqolada Buxoro oblastidagi dori o'simliklarini to'plash komissiyasining a'zosi, biologiya fanlari nomzodi, dotsent Isoqov hamda Buxoro davlat pedagogika institutining asissenti SH.Jo'rayevlar taqdim qilgan ma'lumotlarga ko'ra, oblastda ko'plab zardoli (o'rik), shaftoli, olvoli, gilos kabi mevalardan qolgan danaklar mag'zidan qo'shimcha ozuqa moddasi yog' olishni o'zlashtiriladi. Shaftoli danagi mag'zidan 33-50 foizgacha, o'rik danagini mag'zidan 30-60 foiz yog' olinib, u ko'p miqdorda "C" vitaminiga boyligi aniqlangan. Bu

moy meditsinada qo'llanilgan. Daraxtlardan yig'ib olingan yelim-kameddan to'qimachilik sanoatida, meditsinada, oziq-ovqat sanoatida ham ishlatalilgan.[13] Shuning uchun ham, bu yelimlarni quruq holda to'plab topshirishga alohida e'tibor berilgan.

Ikkinci jahon urushi davrida mamlakatning, ayniqsa, Qizil Armiya uchun "C" vitaminiga bo'lgan talabi juda yuqori ekanligi sababli bu vitaminiga boy resurslarni aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar ham kuchaytirilgan. SSSR Fanlar akademiyasi O'zbekiston filialining botanika va tuproqshunoslik intituti Respublikadagi vitaminli o'simliklarni o'rganishga kirishib dastlabki tadqiqotlar natijasida yovvoyi holda o'sadigan uch xil namatakning quruq mevalarini kimyoiy tekshirishdan o'tkazib, namataklarda "C" vitamining 1,1 foizi borligini aniqlaganlar.[14] Buxoro oblastida ham jangalgul nomi bilan ataladigan namatak mevasidan "C" vitamini ajratib olish ishlari yaxshi uyushtirilgan.[13]

Ichki imkoniyatlardan unumli foydalanish nafaqat oziq-ovqat, farmasevtika sohasida balki, ishlab chiqarishning ko'pgina tarmoqlarida amalga oshirilgan. Bunga urushdan ilgari mavjud bo'lgan mahsulotlarni endi respublikamizga keltirish to'xtab qolganligi yoki front ehtiyoji uchun boshqa mahsulot ishlab chiqarishga moslashtirilganligi sabab bo'lgan.

Xuddi shunday sabablar bilan urushning dastlabki uch yilda O'zbekistondagi yog' zavodlarining tarkibiy qismi hisoblangansovun ishlab chiqarish sexlarida kaustik soda muammosi paydo bo'ladi. Bu muammoni hal etish uchunsovun ishlab chiqarishning mutaxassislari g'o'zapoya kulidan ishqor qilib, shu ishqorning soda o'rniда foydalanish mumkinligini aniqlaganlar. Ishlab chiqarishda g'o'zapoya kulidan foydalanish tajribasini Namangan oblasti bo'yicha Karl Marks nomidagi 3-sonli yog' zavodi[15], Samarqand oblastida esa, "Krasniy Vostok" arteli birinchi bo'lib amalga oshirgan. "Lenin yo'lli" gazetasining 1942-yilning 31-dekabr sonida berilgan e'londa Samarqand, Kattaqo'rg'on, Pastdarg'am va Qoradaryo sanoat kombinatlari hamsovun ishlab chiqarish uchun har xil yog'lar va g'o'zapoya kulini qabul qilishi haqida xabar beriladi. Samarqandagisovun sexlari yog' va kul topshiruvchilarga quyidagi miqdordarda kirsovuni bilan haq to'langan: 0,6 kg. yog' uchun 1 kilogrammsovun, 20 kilogramm elangan quruqkul uchun 1 kilogrammsovun, 20 kilogramm elanmagankul uchun 0,8 kgsovun berilgan.[16] Namangan oblastidagisovun zavodiga topshirilgan har tonna g'o'zapoya kuli uchun 50 so'm pul hamda 2 tonna sheluxa va 500 kilogramm kunjara berilgan.[15] Keyinchaliksovun ishlab chiqarishda tajribalar yanada takomillashib, 1943-yilda Samarqand oblasti Kattaqo'rg'on rayonidagi Mikoyan nomli zavod "gil" (Gil, soz loy – katta yopishqoqlik va qovushqoqlik xususiyatlari ega bo'lgancho'kindi tog' jinsi) dansovun pishirish tajribasini ham amalga oshirib yaxshi natijalarga erishgan.[17] "Suvorovchi" gazetasining xabar berishicha, 1944-yilda Buxoro oblastida respublikasovun sanoatini kaustik soda bilan ta'minlagan respublikadagi yagona soda zavodi qurib bitirilgan. Zavod shu yilning yanvar oyida birinchi mahsulotini bergen.[1:149] Shu tariqa yog' zavodlari uchun kaustik soda yetkazish muammosi deyarli tugatilgan.

Ishlab chiqarishdagi shu kabi muammolardan yana biri – tuz mahsuloti bo'ldi. O'zbekistonda ko'plab tuz konlari bo'lishiga qaramay urushgacha bo'lgan davrda respublikaga tuz Qozog'iston va Ittifoqning boshqa hududlaridan olib kelingan.[18] Mamlakatning o'zidagi tuz konlarini ishga solish, uni hududlarga tashishdagi muammolar ishlab chiqarishda tuz ishlatalidigan korxonalar, xususan, ko'nchilik sexlarida uning o'rniqa boshqa vositadan foydalanish bo'yicha izlanishlarga sabab bo'lgan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar anor mevasining po'stidan ko'pgina sohalarda foydalanish mumkinligini isbotlagan. Uning po'sti xurushlash (teri oshlash) materiali hisoblanib, 32 foizgacha xurushlash moddasiga egaligi aniqlangan. Bundan tashqari anor po'sti qo'y terisini, junlarni, qolin, gilamlarni va shohilarni har xil rangga bo'yash uchun ishlatalilgan. Shuningdek, u meditsinada ichak qurtini haydab chiqarish vositasi ekanligi ham isbotlangan.[13] Namangandagi "Sharq" artelining raisi kimyogar Geysman esa ko'pgina tajribalardan keyin anor po'chog'idan siyoh olish mumkinligini aniqlab, 1942-yilning iyun oyida siyoh ishlab chiqarish sexini tashkil qilib, oktyabr oyigacha shahar muassasalariga 35700 litr siyoh yetkazib bergen.[19:2] Anor po'stini hamma joyda quruq va sof holda to'planib davlatga topshirilgan. Teri oshlash vositasi sifatida yong'oqning ustidagi yashil qobig'i ham xurishlash moddasiga boy bo'lib, gazalamalarni bo'yash uchun ishlatalilgan.[13]

Matbuot materialarining tahlili shuni ko'rsatadiki, teri oshlashda ishlatish mumkin bo'lgan mahalliy resurslarni qidirish va ko'paytirish harakati 1942-yilda ancha kuchaytirilgan. "Qizil

## TARIX

O'zbekiston" gazetasining 1942-yil 21-may sonida "Teri oshlash moddalarining yangi xillari qidirilmoxda" nomli maqolada O'zbekiston SSR Yengil sanoat xalq komissarligi qoshidagi "Dubitel" trestining idorasi teri oshlash uchun ishlatiladigan yangi xil xomashyolar qidirib topish yuzasidan katta izlanishlar olib borilayotgani xabarini beradi. Bunday xomashyo sifatida O'zbekistonning ko'pgina hududlarida o'sadigan yantoq o'simligi eng yaxshi vositalardan ekanligi aniqlangan. Bundan tashqari, chigit cheluxalari, paxta ko'saklari, Turkmanistonda o'sadigan chuxra va pisto po'choqlaridan ham teri oshlash moddalari olish mumkinligi amalda isbotini topgan.[20]

Vatan urushi mudofaa uchun eng kerakli xomashyolardan biri qo'rg'oshinni tejash ishini o'rta ga qo'yanligi uchun uning o'rniqa boshqa materiallardan foydalanishni topish zarurati tug'iladi. Masalan, idishlarni sirlash jarayonida urushgacha bo'lgan davrda qo'rg'oshin ishlatilgan bo'lsa, endi shisha parchalari bilan tashlandiq tunukalar ishlatila boshlangan. Shisha sinqlarini maxsus asbob bilan maydalab, uni tunuka qirindisi bilan aralashtirib, undan mahsulotlarni sirlashda foydalanishgan. Birgina Samarqand oblasti Oqdaryo rayonidagi "Yangiyo'l artelining" kulolchilik sexi ishlab chiqargan mahsulotlarni sirlash uchun har oyda 50 kilogramdan ko'proq qo'rg'oshin sarflagan. Yangi vositaning topilishi bilan sex buni tezda amaliyatga joriy qilgan.[21] Ikkinchchi jahon urushi davri matbuotida mana shu kabi ixtiro va tashabbuslar keng xalq ommasiga yetkazib borildi. Tajribadan o'tgan ixtiro va yutuqlarni amaliyatga joriy qilishni faol targ'ib qilindi. Bularning natijasida xalq iste'molidagi narsalar ishlab chiqarish harakati kuchaydi. Jumladan, Namangandagi "Sharq" arteli ishchilari ichki resurslardan foydalanib, turmushda eng ko'p iste'mol qilinadigan gugurt ishlab chiqarishni yo'nga qo'yadi. "Yangi rivojiya" arteli esa, 1942-yilda pilla va ipak chiqindilaridan foydalanishni boshlab, qishki issiq kiyimlar va boshqa to'qimachilik mahsulotlarini tayyorlashni boshlagan.[19:1]

Urush sharoiti mahalliy sanoat korxonalari va artellarga Qizil armiya va mamlakatning ichkarisida ishlab chiqarish muassasalariga asbob-uskuna, turli ishlab chiqarish vositalarini tayyorlash vazifikasi ham yuklatildi. Bu ishlarda ham ichki imkoniyatlardan foydalanish masalasi asosiy o'rinda bo'lgan.

Binobarin, O'zbekiston SSR FAN qoshidagi Ximiya institutida qizil miya o'simligining tolalaridan sanoatda foydalanish masalasini o'rganib, arqonlar tayyorlash mumkinligi aniqlangan.[22] Stalin haqiqati gazetasining 1942-yil 8-oktyabr sonida "Ijodiy tashabbus" sarlavhani maqolada Namangan Oblmnogopromsoyuzining raisi o'rinosari S.M.Shustov taqdim etgan ma'lumotlarga qaraganda, oblastdagagi "Iskra" arteli 1942-yilning iyul oyida Qizil Armiyaga korzinka (savat)lar yetkazib berish majburiyatini olib, qo'g'a (qamishga o'xhash o'simlik) dan pishiq korzinkalar to'qishni ixtiro qilganlar va shu asosida sex ham tashkil qilingan. Namangan shahridagi Kirov nomli va Chust rayonidagi "Qizil poyabzalchi" arteli hunarmandlari esa, oblastdagagi kolxozlarni qop bilan ta'minlash tashabbusi bilan chiqqanlar. Kirov artelidagi I.Kimning kanop o'rniqa eski paxtadan tayyorlangan iplar bilan ishlab chiqqan yangi turdag'i qoplari sinovdan yaxshi o'tgan. 1942-yil oxirigacha bunday qoplardan 35 ming dona tayyorlash majburiyati olingan.[19:1] Umuman olganda, respublikadagi zavod va artellarda ishlab chiqarishdan qolgan har qanday chiqindilardan, yovvoyi meva va o'simliklardan unumli foydalanishga harakat qilindi. Ulardan oziq-ovqat, dori-darmon, asbob-uskuna va boshqa zaruriy narsalar ishlab chiqarildi.

O'zbekistonda urush yillarda amalga oshirilgan sanoat sohasidagi tadbirlar natijasida mahalliy sanoat tarmog'i, ishlab chiqarish ko'lami hamda mahsulot turlari nihoyatda o'sdi. Ularda mahalliy resurslar hisobiga mahsulot ishlab chiqarish ko'paydi. Agar 1940-yilda Respublikadagi 68 ta shahar va rayonda mahalliy sanoat korxonalari ishlagan bo'lsa, 1941-yilning oxiriga kelib bu ko'rsatkich 109 tani tashkil etgan.[23] Ularda ixtirochilik harakatlari kuchaydi. Birgina Samarqandagi Oxunboboyev nomli teri zavodining ishchilari tomonidan 1941-yilda taklif qilingan 20 ta ixtirochilik taklifidan 10 tasi amalga oshirilib, 182 ming 698 so'm mablag' tejalgan.[24] Urushgacha bo'lgan davrda foydanilmay kelgingan xomashyolar, ishlab chiqarishdan qolgan chiqindilardan turli vositalar ishlab chiqarildi hamda mudofaa va xalq xo'jaligini yuksaltirishda muhim omil bo'ldi.

Yuqorida keltirilgan yutuqlar bilan birga shuni ham ta'kidlash lozimki, Ikkinchchi jahon urushi yillarda mahalliy resurslardan, ichki imkoniyatlardan unumli foydalanishda bir qator kamchiliklar ham mavjud bo'lgan. Jumladan, Respublikada ishlab chiqarishda ishlatilgan har xil xomashyo chiqindilardan foydalanish amalda keng yoyilmagan. Buni barcha ishlab chiqarish muassasalari

o'zlashtirmaganlar. Dalil sifatida, 1942-yil boshida faqatgina Toshkent korxonalarining o'zidan 455 tonna metal chiqindisi, 306 tonna charm chiqindisi, 26 tonna to'qima chiqitlari foydalanilmasdan qolib ketgan.[25]

Lenin yo'li gazetasining 1942-yil 10-mart sonida "Tashabbusga boshchilik qilmaydilar" sarlavhalı maqolada Samarqand oblast mnogopromsoyuz tashkiloti tarkibidagi oyoq kiyimlari tikish va uni yamoq qilish bilan shug'ullanadigan 23 ta arteldan faqat "Krasniy kojinnik" arteliga zavod ishlab chiqarishiga yaroqsiz terilardan sifatli ko'n va padosh ishlab chiqarishni o'zlashtirganligi tanqid ostiga olinadi.[26] Sovet hukumati urush sharoitida bu sohaga nima uchun katta e'tibor bergenligini shu bilan ham izohlash mumkinki, birgina Samarqand shahrining o'zidagi oyoq kiyimlari tikish ustaxonalara ko'n va qalin charm bilan ta'minlash uchun 7 million 500 ming so'mlik xomashyo chetdan keltirilishi lozim bo'lgan.[26] Bundan kelib chiqadiki, Samarqandda bu sohada chetdan keltiriladigan xomashyo o'rnini mahalliy resurslar hisobiga to'ldirish jarayoni sust borgan.

#### **MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)**

Sovet davrida amalga oshirilgan tadqiqotlarda Ikkinci jahon urushi yillarida mahalliy resurslardan foydalanib, ishlab chiqarish jarayoniga qo'shilgan hissa haqidagi masala deyarli chetlab o'tilgan. Jumladan, E.Abdurahmonovning "O'rta Osiyo respublikalari olimlarining frontga qo'shgan hissasi" risolasida, birinchidan, Markaziy Osiyo Respublikalaridagi ilmiy tajribalar haqida so'z borib mamlakatimiz haqida kam ma'lumotlar berilgan bo'lsa, ikkinchidan, ichki imkoniyatlardan foydalanish harakati olimlarning qo'shgan hissasi o'laroq o'rganilgan.

Bizning tadqiqot ishimizda O'zbekistonda ushbu harakatning amalda joriy etilishi, mahalliy imkoniyatlardan foydalanib, urush ehtiyojlari uchun qanday mahsulotlar ishlab chiqarilganligi to'g'risida tahvilij ma'lumotlar berildi. Artellarning ichki imkoniyatlardan foydalanishdagi faoliyatini sovetlar tuzumi davrida deyarli o'rganilmaganligining sababi – artellarning davlat korxonasi emas, balki paychilik asosida ishlaydigan korxona ekanligi ehtimoldan holi emas. Zero, Urushdan keyingi 50-60-yillarda Sovet hukumati artellarni milliyashtirdi va davlat korxonalarini tarkibiga kiritdi.[27]

#### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION)**

Amalga oshirilgan tadqiqotning natijalaridan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Ikkinci jahon urushi davrida mahalliy resurslardan, ichki imkoniyatlardan unumli foydalanish harakati avj oldirildi. Buning natijasida sovet hukumati markazlashtirilgan fondlarni front ehtiyojlariga burish imkoniyatiga ega bo'lardi;

- O'zbekistonda mahalliy resurslardan foydalanish jarayoni – yovvoyi mevalardan, o'simliklardan oziq-ovqat, dori-darmon, sanoatda ishlab chiqarish uchun vositalar tayyorlash, ishlab chiqarishdan qolgan chiqindilardan Qizil armiya va xalq xo'jaligi uchun asbob-uskuna va har xil vositalar tayyorlash ko'rinishida amalga oshirildi;

- mahalliy imkoniyatlardan unumli foydalanish ishida respublikadagi mahalliy va ko'chirib keltirilgan ilmiy xodim hamda olimlar katta hissa qo'shganlar. Ular kichik-kichik shakldagi ilmiy qo'llanmalar nashr etdilar. Bundan tashqari matbuot sahifalarida sohaga oid bilimlar ishchilar, kolxozi va sovxozi a'zolarining keng ommasiga yetkazib borildi;

- urush yillarida O'zbekistonning yaylov, to'qayzor va tog'li hududlarida o'sadigan yovvoyi holda uchraydigan "shakar tikan", yovvoyi jiyda, qizilmiya, namatak, qo'g'a, qamish, daraxt yelimi kabilardan kerakli vositalar ishlab chiqarildi. Xususan, birgina yovvoyi jiydaning o'zidan spirit, tannin va tanelbin, kofe ishlab chiqarilgan hamda oziq-ovqat sifatida iste'mol qilingan;

- iste'mol qilingan xomashyodan qolgan chiqindilar – anor po'sti, yong'oq qobig'i, qovun va tarvuz singari poliz ekinlarining urug'lari, mevalarning danaklari, g'o'zapoya kulidan unumli foydalanilib yetishmayotgan xomashyolarning o'rnni to'ldirildi. Jumladan, iste'mol qilingandan keyin tashlab yuboriladigan anorning po'sti ko'n sanoatida, tibbiyotda hamda siyoh ishlab chiqarishda xomashyo vazifasini o'tadi. G'o'zapoya kuli esa, respublikadagi sovun zavodlarida sovun ishlab chiqarishning asosiy vositasiga aylandi;

- to'qimachilik, ko'nchilik, metallurgiya va boshqa sanoat tarmoqlaridan qolgan chiqindilarini ham unumli ishlatilib, xalq xo'jaligi ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qildi. Oddiygina shisha siniqlari ham bu harakatlardan chetda qolmadи. U kulolchilik sexlarida mudofaa uchun kerakli vosita – qo'rg'oshin o'rniga ishlatildi;

## TARIX

– Ikkinchı jahon urushi yillarda mahalliy resurslarning ko‘paytirilishi natijasida front uchun juda katta yordam berildi. O‘z-o‘zini ta‘minlash tizimiga o‘tishda muhim omil bo‘ldi. Xomashyo sotib olish uchun sarflanadigan mablag‘larni tejash imkonи ko‘paydi. Ammo, shu bilan birga ichki imkoniyatlardan foydalanish, ixtirolarni amaliyatga tadbiq qilish ishi respublikaning hamma hududlarida, barcha zavod, fabrikalarda keng amalga oshirilmadi.

Yakuniy xulosa sifatida, O‘zbekistonning mehnatkash xalqi mamlakat mudofaasi uchun mislsiz mehnatlari bilan G‘alabani tezlashtirishda katta hissa qo‘shti. Urush davrining ta‘biri bilan aytganda, oylar, haftalar davomida amalga oshirilgan ishlar kunlar, soatlar mobaynida bajarildi.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES)

1. Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. 1-китоб. – Т.: Академнашр, 2017. – 544 б. (Shamsutdinov R. World War II and frontline newspapers. Book 1. - T.: Akademnashr, 2017. – 544 p.)
2. Абдураҳмонов Э. Ўрта Осиё республикалари олимларининг фронтга кўшган ҳиссаси. – Т.: Фан, 1990. – 48 б. (Abdurahmonov E. The contribution of scientists from the Central Asian republics to the front. – T.: Fan, 1990. - 48 p.)
3. Будников Ю. И. Изыскание дополнительных источников продовольственного снабжения рабочих и служащих Урала в годы Великой Отечественной войны. // Вестник Южно-Уральский государственный университет. Серия «Социально-гуманитарные науки». 2014, т. 14, №.4. – С. 25-27. // <https://cyberleninka.ru/article/n/izyskanie-dopolnitelnyh-istochnikov-prodovolstvennogo-snabzheniya-rabochih-i-sluzhashchih-urala-v-gody-velykoy-otechestvennoy-voyny?> (Budnikov Yu. I. Finding additional sources of food supply for workers and employees of the Urals during the Great Patriotic War. // Bulletin of the South Ural State University. Series "Social and Humanitarian Sciences". 2014, v. 14, №.4. – P.25-27.)
4. Маҳаллий озиқ-овқат ресурслари // Қизил Ўзбекистон. – №.173 (5153). 1941, July 24. – Р.3.)
5. Маҳаллий ресурсларни тўла ишга солайлик. // Қизил Ўзбекистон. –№.218 (5198). 1941, 14 сентябрь. –Б. 4. (Let's make full use of local resources. // Red Uzbekistan. –№.218 (5198). 1941, 14 September. –P. 4.)
6. Қизил Ўзбекистон. –№.172 (5152). 1941, 23 июль. – Б. 1. (Red Uzbekistan. –№.172 (5152). 1941, July 23. – P.1.)
7. Бухоро ҳақиқати. –№261 (1062). 1941, 4 ноябрь. – Б. 4. (The truth of Bukhara. –№261 (1062). 1941, 4 November. – P.4.)
8. Бухоро ҳақиқати. –№262 (1063). 1941, 5 ноябрь. – Б. 2. (The truth of Bukhara. –№262 (1063). 1941, 5 November. – P.2.)
9. Лебедов. Жийда беҳуда нобуд бўлмасин. // Қизил Ўзбекистон. –№.192 (5172). 1941, 15 август. – Б. 3. (Lebedov. Do not perish in vain. // Red Uzbekistan. –№.192 (5172). August 15, 1941. – P.3.)
10. Ўзбекистон тоғларида етишадиган мевалар. // Қизил Ўзбекистон. –№.251 (5851). 1943, 8 декабрь. – Б.4. (Fruits grown in the mountains of Uzbekistan. // Red Uzbekistan. –№.251 (5851). 1943, December 8. – P.4.)
11. Шолипояларда балиқ урчитиш. // Қизил Ўзбекистон. –№.72 (5364). 1942, 26 марта. – Б. 2. (Fish spawning in rice fields. // Red Uzbekistan. –№72 (5364). 1942, 26 March. – P.2.)
12. Ребрин М. Маҳаллий хомашёдан дори дармон тайёрлаш. // Қизил Ўзбекистон. –№.296 (5276). 1941, 13 декабрь. – Б. 1. (Rebrin M. Preparation of medicines from local raw materials. // Red Uzbekistan. –№.296 (5276). 1941, 13 December. – P. 1.)
13. Бухоро ҳақиқати. –№.269 (1070). 1941, 13 ноябрь. – Б. 3. (The truth of Bukhara. –№.269 (1070). 1941, 13 November. – P.3.)
14. Ребрин М. Ўзбекистонда витаминли ўсимликлар. // Қизил Ўзбекистон. –№.307 (5287). 1941, 26 декабрь. – Б.1. (Rebrin M. Vitamin plants in Uzbekistan. // Red Uzbekistan. –№.307 (5287). December 26, 1941 – P.1.)
15. Фўзапоя кули – ёғ саноатига. // Сталин ҳақиқати. – №20 (2159). 1942, 24 январь. – Б.2. (Cotton ash - for the oil industry. // Stalin's truth. –№20 (2159). 1942, 24 January. – P.2.)
16. Ленин йўли. –№.304 (3328). 1944, 31 декабрь. –Б.2. (Lenin's Way. –№.304 (3328). 1944, 31 December. –P.2.)
17. Совун ишлаб чиқариш кучаймоқда. // Ленин йўли. –№.22 (3350). 1943, 28 январь. – Б.1. (Soap production is on the rise. // Lenin's Way. –№.22 (3350). 1943, 28 January. –P.1.)
18. Қизил Ўзбекистон. –№.303 (5283). 1941, 21 декабрь. – Б.3. (Red Uzbekistan. –№.303 (5283). 1941, 21 December. – P.3.)
19. Сталин ҳақиқати. – №.233 (2372). 1942, 8 октябрь. – Б. 2. (Stalin's truth. – №.233 (2372). 1942, 8 October. – P. 2.)
20. Қизил Ўзбекистон. –№.118 (5410). – 1942, 21 май. – Б. 2. (Red Uzbekistan. –№.118 (5410). 1942, 21 May. – P.2.)
21. Пирназаров Б. Қўргошин ўрнига шиша. // Қизил Ўзбекистон. –№.283 (5263). 1941, 28 ноябрь. – Б.1. (Pirnazarov B. Glass instead of lead. // Red Uzbekistan. –№.283 (5263). 1941, 28 November. – P.1.)
22. Маҳаллий хомашёдан арқонлар. // Қизил Ўзбекистон. –№.291 (5271). 1941, 7 декабрь. – Б. 3. (Ropes from local raw materials. // Red Uzbekistan. –№.291 (5271). 1941, December 7. – P.3.)
23. Ҳамма бойликларимизни тўлиқ ишга солиш учун. // Қизил Ўзбекистон. – №.285 (5265). 1941, 30 ноябрь. – Б. 1. (To fully utilize all our wealth. // Red Uzbekistan. – №.285 (5265). 1941, November 30th. –P.1.)
24. Акрамов Ш. Новаторлар. // Ленин йўли. – №.24 (3048). 1942, – 29 январь. – Б. 4. (Akramov Sh. Innovators. // Lenin's Way. – №.24 (3048). 1942, - 29 January. –P.4.)
25. Мирзаҳмедов М. Маҳаллий хомашёдан кенг истеъмол моллари ишлаб чиқаришини кўпайтирайлик. // Қизил Ўзбекистон. –№.73 (5365) 1942, 27 марта. –Б.2 (Mirzaahmedov M. Let's increase the production of consumer goods from local raw materials. // Red Uzbekistan. –№.73 (5365) 1942, 27 March. –P.2.)
26. Ташаббусга бошлилик қўлмайдилар // Ленин йўли. – №.58 (3082). 1942, 10 марта. –Б.4. (They do not lead the initiative // Lenin's Way. –№.58 (3082). 1942, 10 March. –P.4.)
27. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%90%D1%80%D1%82%D0%B5%D0%BB%D1%8C%D0%A1%D0%BE%D0%B2%D0%B5%D1%82%D1%81%D0%BA%D0%BE%D0%B5%D0%B2%D1%80%D0%B5%D0%BC%D1%8F>

(Taqrizchi: B.Usmanov – tarix fanlari doktori)